

**PEDAGOGLAR TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI,
MOHIYATI VA TUZILMASI**

Kiyomov Abdulla Xaytaliyevich

Termiz davlat pedagogika instituti.

Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi.

**СОДЕРЖАНИЕ, СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ**

Киёмов Абдулла Хайталиевич

Термезский государственный педагогический институт. Старший

преподаватель кафедры технологического обучения

**THE CONTENT, ESSENCE AND STRUCTURE OF THE
TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF EDUCATORS**

Kiyomov Abdulla Khaytalievich

Termez State Pedagogical Institute. Senior

lecturer in the Department of technological education.

Annotatsiya:

Maqola pedagoglar texnologik kompetentligining mazmuni, mohiyati va tuzilmasi muammosiga bag'ishlangan. Unda pedagoglar texnologik kompetentligining mazmuni, mohiyati va tuzilmasining dolzarblik masalalari o'rganib chiqilgan. Pedagoglar texnologik kompetentligining mazmuni, mohiyati va tuzilmasini aniqlash hamda bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarning tadqiqotlari natijalari yoritib berilgan.

Аннотация:

Статья посвящена проблеме содержания, сущности и структуры технологической компетентности педагогов. В нем исследуются актуальные вопросы содержания, сущности и структуры технологической компетентности педагогов. Освещены вопросы определения содержания, сущности и структуры технологической компетентности педагогов, а также результаты исследований ученых, осуществлявших научно-исследовательскую работу в данной области.

Abstract:

The article is devoted to the problem of the content, essence and structure of technological competence of educators. It studied the issues of relevance of the content, essence and structure of the technological competence of educators. The results of the research of scientists who carried out research work in this field were highlighted to determine the content, essence and structure of technological competence of educators.

Kalit soʻzlar: kompetentlik, texnologik kompetentlik, pedagogning texnologik kompetentligi, mazmun, mohiyat, tuzilma, komponent, yondashuv.

Ключевые слова: компетентность, технологическая компетентность, технологическая компетентность педагога, содержание, сущность, структура, компонент, подход.

Key words: competence, technological competence, technological competence of the educator, content, essence, structure, component, approach.

Pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish, uning mohiyati, mazmuni va tuzilishini ochib berish hozirgi kunda zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu muammoning echimini topish va pedagogik jarayonlarga tadbiq etish bir qator zamonaviy pedagog olimlarning ishlarida maʼlum bir daraja yoritib berilgan. Hozirgi zamon pedagogik-psixologik adabiyotlarda “texnologik kompetentlik” tushunchasining mohiyatini aniqlashga doir bir qancha yondashuvlar mavjud boʻlib, ular “boʻlajak pedagoglarning texnologik kompetentligi” tushunchasining mazmunini ochib berish va uning ishchi taʼrifini ifodalash imkonini beradi. Shu sababdan, “texnologik kompetentlik” tushunchasiga zamonaviy nuqtai nazardan aniqlik kiritish lozim. U aniq taʼrif orqali ifodalanmaganligidan biz pedagogik amaliyot va tajribamizdan kelib chiqib, bu tushunchaga aniqlik kiritishga harakat qildik.

"Pedagoglarning texnologik kompetentligi" tushunchasining bir qiymatli emasligi va uning oʻziga xosligidan kelib chiqib, tahlil mantigʻini belgilab olish mumkin. Bular quyidagilardan iborat: taʼlimda texnologik yondashuvning mohiyatini oʻrganish va boʻlajak pedagoglar texnologik kompetentligining mohiyatini pedagogik texnologiyalarni qoʻllash koʻnikmalari kompleksi sifatida asoslash,

ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo'llash, pedagogik jarayonni aniq maqsadga yo'naltirilgan operatsiyalar, harakatlarning ketma-ketligi sifatida loyihalash[6]. Ta'lim va pedagogik jarayonlarga nisbatan texnologik yondashuvni universal hisoblab bo'lmaydi emas, u faqat pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, ijtimoiy pedagogika, siyosashunoslikga fan va amaliyotning boshqa sohalariga ilmiy yondashuvlarni to'ldiradi.

Pedagogik tizim tuzilishida V.P. Bepalko[5] texnologik kompetentlikka oid elementlarning o'zaro bog'liq ikkita guruhini alohida ajratib ko'rsatgan: texnologik kompetentlikning birinchi guruhga ajratilgan elementlari pedagogik vazifani belgilaydi va ifodalaydi (o'quvchilar, talabalar, ta'lim maqsadlari va mazmunini) va ikkinchi guruh elementlari pedagogik texnologiyani hosil qiladi (o'qitish jarayonlari, tashkil etilishi va vositalari). Ushbu elementlarni joriy etish bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan qator ko'nikmalarni talab qiladi. Bular-kognitiv, operatsional-faoliyatiy, didaktik-uslubiy va refleksiv-tahlil ko'nikmalari bo'lib, ular u yoki bu pedagogik masalalar guruhini hal etish imkonini beradi. Vazifalarning birinchi guruhi va tegishli ko'nikmalar bo'lajak pedagoglarning axborot jarayoniga asoslangan axborot-kommunikativ, reguliyativ-kommunikativ va afferent-kommunikativ faoliyatini nazarda tutuvchi boshqaruv sifatidagi o'quv jarayoni qonuniyatlari va tushunchalari haqidagi bilimlarga asoslanadi.

Ikkinchi guruh vazifalar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini qadriyatlar, ma'naviy asoslar va atrofdagi voqelikka munosabat, shaxsiy-kasbiy ustuvorliklar asosida boshqarish bilan uzviy bog'liq.

Uchinchi guruh vazifalar va malakalar o'quv jarayonida aniq maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshirish, rejalashtirilgan natijaga erishish uchun faoliyatni tashkil etish va boshqarish xususiyatini belgilaydi.

To'rtinchi guruh pedagogik vazifalar mos usullar, vositalar va texnologiyalarni tanlash, optimal sharoitlarni yaratish va ushbu jarayonning tuzilmaviy bo'linmalarini aniqlagan holda pedagogik jarayonni loyihalash va uning natijasini ta'minlaydigan tahlilga funksional yondashish bilan bog'liq.

Beshinchi guruh pedagogik vazifalar bo'lajak pedagoglarning refleksiv faoliyatini, o'z-o'zini baholashini, pedagoglarning amalga oshiriladigan kasbiy faoliyatga qo'yiladigan me'yoriy talablarni tushinishi va qabul qilishini, tahlil asosida o'quv faoliyatini pedagogik boshqarish maqsadini va natijani baholashni aks ettiradi.

Texnologik kompetentlikning bunday o'ziga xos xususiyatlarini ajratib

ko'rsatishdan asosiy maqsad bo'lajak pedagoglar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning integrativligiga, shuningdek, ularning maqsadlarga mosligi va bir-birini to'ldirishiga urg'u berishdir. Harakatlarning barcha asosiy bloklari murakkab tarkibga ega bo'lib, ular texnologik protseduralarning turli tuzilmalarini tashkil etuvchi aniq harakatlar bilan ifodalanadi. Bu harakatlarning aniq maqsadga yo'nalganligi ularning tarkibi va ta'sir doirasiga qarab belgilanadi.

Bugungi kunda pedagogikada texnologik yondashuv yo'nalishidagi tadqiqotlar muhim o'rinni egallaydi, Bu borada olib borilgan tadqiqot ishlarida bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligi deganda ko'pincha bolalarni o'qitish va tarbiyalashga oid pedagogik texnologiyalarni egallaganlik qobiliyati tushuniladi. Texnologik kompetentlikni bunday nuqtai nazardan tushunish zamonaviy pedagoglarning umumiy kasbiy kompetentligi haqidagi tasavvurni sezilarli darajada toraytiradi [7].

V.D.Simonenkoning[9] fikriga ko'ra, "texnologiya umumiylikda yagonalik va o'ziga xoslikni qayta o'zgartirish jarayonini va aksincha jarayonni belgilab beradi. U keng ma'noga ega tushuncha bo'lib, quyidagilarda o'z aksini topadi: jamiyat, ishlab chiqarish va inson rivojlanishining tayanch tushunchasi, vositasi va mezonini bildiruvchi ijtimoiy-falsafiy kategoriya, o'zgarishlar va ijod mafkurasi; texnologiya integrallashgan, amaliy ta'lim sohasini ifodalovchi psixologik-pedagogik kategoriya, tizimlilik, pedagogik jarayonning yaxlitligi, buyumlarni loyihalash va tayyorlashni o'z ichiga oluvchi umumiy faoliyat usuli; moddiy va ma'naviy madaniyatlar birligi haqidagi umummadaniy paradigmani bildiruvchi madaniyatshunoslikka oid tushuncha; ijodiy fikrlash va qayta o'zgartirish faoliyatining ijodiy xarakteri; turli darajalarda qayta o'zgartirish faoliyati usullarini o'rganuvchi ilmiy bilimlar sohasi: falsafiy, umumilmiy, maxsus; texnologiya ta'lim sohasida o'qitishning nazariy asoslari demakdir. Texnologiya ish metodlari, uslublari, tartibini, ish amallari va tadbirlar ketma-ketligini o'zida mujassamlantiradi, u vositalar, jihozlar, instrumentlar, foydalaniladigan materiallar bilan uzviy bog'liq. Texnologik operatsiyalar yig'indisi texnologik jarayonlarni hosil qiladi.

Hozirgi zamon fanida "texnologiya" atamasi quyidagi birliklarda ishlatiladi: o'qitish texnologiyasi, ta'lim jarayoni texnologiyasi, tayyorlash texnologiyasi, boshqarish texnologiyasi, multimedia texnologiyasi.

-texnologiya-ishlab chiqarishning muayayn tarmog'idagi ishlab chiqarish jarayonlari yig'indisi, shuningdek, ishlab chiqarish usullarining ilmiy tavsifi.



Ko'plab pedagogik olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijalarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, pedagogik kompetentlik va texnologik kompetentlik bo'lajak pedagogning nazariy va amaliy tayyorgarligi birligini ifodalaydi. Nazariy tayyorgarlik texnologik fikrlash bo'yicha umumlashgan ko'nikmalarda namoyon bo'ladi va u o'qituvchidan analitik, prognostik, proyektiv va reflektiv ko'nikmlarni o'zlashtirishni taqozo etadi.

Amaliy tayyorgarlik mazmunida ular eng birinchi navbatda pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari, pedagogik faoliyatning maqsad va vositalari hamda o'zaro munosabatlarni aniqlash va o'rnatish ko'nikmlari, bo'lajak pedagoglarik jarayonni ortiqcha yo'qotishlarsiz eng maqbul tarzda loyihalash qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Demak, texnologik kompetentlikga ega bo'lish-bu eng asosiy vazifani (muammoni) aniqlash va ajratib olish, uni real kasbiy faoliyatda hal qilishning optimal yo'llarini topishdan iborat[7].

Kasbiy kompetentlik tuzilmasida texnologik kompetentlik deb ataladigan va o'qitish samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadigan texnologik tashkil etuvchini, shu jumladan pedagog kompetentligining operatsional-faoliyatiy yoki operatsional-protsessual komponentini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu komponent mazmunida quyidagilar o'z aksini topgan: bilimlar bloki (metodologik, axborot-mazmunii, uslubiy, texnologik, ijodiy); pedagogik texnika, pedagogik ta'sir va o'zaro ta'sirning turli metodlari va uslublari majmui, yangi texnologiyalarni loyihalash va qurish qobiliyati, ijodiy qobiliyat va ko'nikmalar [6]. Demak, texnologik kompetentlik bo'lajak pedagoglar kasbiy kompetentligining bir qismi va integrativ sifati bo'lib, u texnologiyalarni bilish va faoliyat texnologiyalari, usullari, vositalari, shakllari va ularni qo'llash, faoliyatni tashkil etish shart-sharoitlarini bilish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. U bo'lajak pedagogning ijodiy ko'nikmalari, loyihalash qobiliyatlari, tahlil etish ko'nikmalari va o'z faoliyati natijalarini baholash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Texnologik kompetentlikni shakllantirishning maqsadi-turli yo'nalishlarda halol, ijodiy mehnatga tayyorlikni shakllantirish, shaxsning salomatligini mustahkamlash, har tomonlama kompleks rivojlanishiga yordam berishdir. Texnologik faoliyatga tayyorgarlik deganda pedagogning kasbiy faoliyat sub'ekti funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan sifatlari majmuasi tushuniladi. Biroq pedagogik tajribalar va maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan pedagoglarning aksariyati, mutaxassisligi, ish staji va yoshidan qat'i nazar, texnologik faoliyat va tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga tayyor emaslar, ya'ni ular tadqiqot muammolarining aksariyat turlarini qanday hal

qilishni bilishmaydi. Pedagoglar o'z faoliyatini ilmiy asosda qayta qurish va tashkil etishda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buni ta'lim muassasalari rahbarlarining baholari, pedagoglarning o'zlariga bergan baholari ham tasdiqlaydi. Ushbu holatning sabablari bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashning hozirgi amaliyoti bilan uzviy bog'liq, deb hisoblaymiz, bu esa ularning tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda zarur ko'nikma va tajribalarni egallashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab etadi. Ushbu muammoning echimini qo'shimcha kurslar tashkil etish va malaka oshirish tizimini takomillashtirish orqali topish mumkin. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish bo'lajak pedagoglarning quyidagi texnologik qobiliyatlarini aniqlash imkonini berdi: ta'lim maqsadlarini belgilash; o'quv materialining mazmunini tanlash va tuzish; ta'lim jarayonini loyihalash; ta'lim jarayoni sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkil etish; pedagogik texnologiyalarni tanlash va ta'lim jarayoniga joriy etish; o'quv va kognitiv faoliyatni boshqarish; nazorat va baholash faoliyatini amalga oshirish; ta'lim va tarbiyaga mos texnologiyalarni tanlash va joriy etish. Yuqoridagi texnologik malakalar pedagogik masalalarni hal qilish jarayonida pedagoglar tomonidan bajariladigan umumiy pedagogik funksiyalarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Kompetentlikka asoslangan yondashuvga muvofiq bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligining texnologik tarkibiy qismi "texnologik kompetentlik" tushunchasida o'z aksini topgan.

Tadqiqotchilar "pedagogika oliy o'quv yurti bo'lajak pedagogning texnologik kompetentligi" tushunchasining muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy asosni aniqlaganlar. Bu nazariy asos pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga kompetentli, tizimli, faoliyatiy, kontekstli, shaxsga yo'naltirilgan yondauvlarga asoslangan qoidalar va tushunchalarga, yaxlit pedagogik jarayon nazariyasiga; pedagogik texnologiyalar sohasidagi nazariy tadqiqotlarga; pedagogik loyihalashtirish nazariyasiga tayaniladi

"Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligi" tushunchasining mazmunini tadqiq etish natijasida biz uning tuzilishi va tarkibiy qismlari(komponentlari)ni o'rganishda umumiy yondashuvlar mavjudligini aniqladik. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'pchilik tadqiqotchilar tizimli yondashuvni asos sifatida belgilashgan. Ushbu yondashuv bizga texnologik kompetentlikni ko'p elementlardan tashkil topgan va ko'p bosqich asosida shakllantiriladigan tuzilma sifatida qarash imkonini berdi. Shuningdek, faoliyatiy yondashuv ham unga asos hisoblanadi. Faoliyatiy yondashuv aniq pedagogning kasbiy faoliyati kontekstida joriy etiladi va uning

texnologik kompetentligi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan bog'liq holda shaxsiyati prizmasi, qadriyatiy yo'nalishlari orqali ko'rib chiqiladi. Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligi mohiyati va tuzilishini o'rganish natijalarini tahlil qilish uning tarkibiy qismlari(komponentlari)ni ajratib ko'rsatishga imkon berdi. Ular quyidagilardan iborat: motivatsion, kognitiv, faoliyatiy, refleksiv[7].

Pedagogika oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligi komponentlari va ularning mazmuni 1-rasmdagi holda batafsil ko'rsatib o'tilgan.

1-rasm. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligi komponentlari va ularning mazmuni.

Texnologik kompetentlik komponentlari	Texnologik kompetentlik komponentlari mazmuni
Motivatsion	Pedagogik faoliyatda texnologik kompetentlikning ahamiyatini bilish va tushunish
	Pedagogik faoliyatda texnologik kompetentlikdan foydalanishga qiziqishning mavjudligi
	Texnologik kompetentlikni o'zlashtirish va qo'llashda o'zining imkoniyatlarini namoyon etish va o'zini o'zi rivojlantirishga qobiliyatning mavjudligi
Kognitiv	Pedagogik faoliyatda texnologik kompetentlikning ahamiyatini bilish va tushunish
	Pedagogik faoliyatda texnologik kompetentlikdan foydalanishga qiziqishning mavjudligi
	Texnologik kompetentlikni o'zlashtirish va qo'llashda o'zining imkoniyatlarini namoyon etish va o'zini o'zi rivojlantirishga qobiliyatning mavjudligi
Faoliyatiy	Pedagogik faoliyatda texnologik kompetentlikning ahamiyatini bilish va tushunish
	Pedagogik faoliyatda texnologik kompetentlikdan foydalanishga qiziqishning mavjudligi
	Texnologik kompetentlikni o'zlashtirish va qo'llashda o'zining imkoniyatlarini namoyon etish va o'zini o'zi rivojlantirishga qobiliyatning mavjudligi
Refleksiv	Pedagogik faoliyatda texnologik kompetentlikning ahamiyatini bilish va tushunish
	Pedagogik faoliyatda texnologik kompetentlikdan foydalanishga qiziqishning mavjudligi
	Texnologik kompetentlikni o'zlashtirish va qo'llashda o'zining imkoniyatlarini namoyon etish va o'zini o'zi rivojlantirishga qobiliyatning mavjudligi

Bo'lajak pedagoglar texnologik kompetentligining motivatsion komponenti hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki motivatsiya, keng ma'noda talqin etilganida, bo'lajak pedagoglarni ta'lim mazmunini o'zlashtirishga undovchi va yo'naltiruvchi omil hamda jarayonlar majmui sifatida qarash imkonini beradi, shuning uchun ham, ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatining sifati, jumladan, texnologik yo'nalishlari jihatida ko'p hollarda uni pedagogik amaliyotda qo'llash bilan uzviy bog'liq [7]. Ushbu holatda motivatsiyani kelgusida kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiyalardan foydalanishga yo'nalgan munosabat, ya'ni texnologik zanjirni amalga oshirish, kafolatlangan natijaga erishishga qaratilgan pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun maqsad qo'yish, loyihalash, amalga oshirish, nazorat va tahlil qilish zarurligini anglash va bilish imkoniyati sifatida ta'riflash mumkin. Bo'lajak pedagoglar o'zlashtirish uchun taklif qilingan o'quv materialini nima uchun kerakligini aniq tushunishlari kerak. Shuning uchun bo'lajak педагогларнинг texnologik kompetentligini shakllantirish jarayonida motivlardan maqsad va vazifalarga, ulardan esa o'quv materialining mazmuni va unga mos o'qitish shakli, metod va uslublarga o'tish muhim ahamiyatga ega.

Motiv-bu ta'lim oluvchini, ya'ni bo'lajak pedagoglarni muayyan harakatlarni bajarishga undaydigan, majbur qiladigan ichki moyil, qiziqish, kuchdir. Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini shakllantirish jarayonida, bir tomondan, pedagogik faoliyatning texnologik tashkil etuvchisi haqidagi ma'lumotlarni majburiy o'zlashtirishni ta'minlaydigan, bo'lajak pedagogning yutuqlarini kursdoshlari va pedagoglarlar tomonidan tan olishni belgilaydigan motivlarni "faollashtirish" kerak, boshqa tomondan esa, motivlar bilish bilan uzviy bog'liq bo'lib, ma'no shakllantiruvchi hisoblanadi[7]. Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligining motivatsion komponenti quyidagilarni o'z ichiga oladi: pedagogik faoliyatda texnologik komponentning ahamiyatini anglash va zarurligini tushunish; amaliyotda pedagogik texnologiyalardan foydalanishga qiziqish (motivatsiya)ning mavjudligi; pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va qo'llash jarayonida o'zining imkoniyatlarini namoyon etish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati). Bo'lajak pedagoglar texnologik kompetentligining kognitiv komponenti quyidagilarni ta'minlaydi: pedagogik texnologiyalarning mohiyatini, ularning daraja xususiyatlari va tasniflarni aniqlashda turlicha yondashish, pedagogik faoliyatning vazifalarini aniqlash va pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida ularni amalga oshirish variantlarini topish, pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish orqali o'quv jarayonini takomillashtirishning asosiy

tendensiyalarini tushunish. Olingan bilimlar bo'lajak pedagogga o'z o'quv yo'nalishini tartibga solishga, kelgusida amalga oshiradigan pedagogik faoliyatiga nisbatan sub'ektiv munosabat shakllantirishga imkon beradi. Ushbu komponent bilimlar majmuasini o'z ichiga oladi: o'quv jarayonini tashkil etishda texnologik yondashuvning mohiyati; pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari; pedagogik texnologiyalarning tuzilishi va mazmuni; pedagogik texnologiyalar turlari va ularni tasniflash asoslari; pedagogik texnologiyalarni tanlash mezonlari va talablari[8]. Bo'lajak pedagoglar texnologik kompetentligining faoliyatiy komponenti pedagogik faoliyat samaradorligini va tezkorligini ta'minlaydigan texnologik ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga oladi. Ushbu komponent doirasida bo'lajak pedagog quyidagilarni uddalay olishi olishi kerak: o'z oldiga maqsad qo'ya bilish; o'quv materialining mazmunini tanlashi va tuza olish; o'quv jarayonini loyihalash; o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro hamkorligini tashkil etish, o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tanlash va joriy etish, bo'lajak pedagoglarning o'quv va kognitiv faoliyatini boshqarish, nazorat-baholash faoliyatini amalga oshirish; ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni tanlash va joriy etish [6].

Bo'lajak pedagoglar texnologik kompetentligining refleksiv komponenti sub'ektiv pozisiyaning namoyon bo'lishini nazarda tutadi va shaxsiy o'ziga xos xususiyatlar hamda refleksiv faoliyati uchun qobiliyatlar yo'nalishi bilan belgilanadi. Ushbu komponent quyidagi mazmuniy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi: introspeksiya, o'z-o'zini baholash, o'zini o'zi boshqarish qobiliyati; o'z faoliyatini va bo'lajak pedagoglar faoliyatini boshqarish qobiliyati; maqsad va natijani taqqoslash asosida pedagogik faoliyat tahlilini amalga oshirish qobiliyati [8].

Bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligining taqdim etilgan tashkil etuvchilari (komponentlari) bir-birlari bilan o'zaro bog'liq va o'zaro aloqadordir. Ularni shakllantirish yaxlit va tizimli ravishda amalga oshiriladi. Shunday qilib, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini shakllantirish zarurati ta'lim tizimini isloh qilish va bo'lajak pedagoglarni tayyorlashga bo'lgan talablarning ortib borishi natijasida kelib chiqadi. Normativ hujjatlar, ilmiy va o'quv-metodik adabiyotlarini tahlil qilish ushbu hodisani o'rganishning dolzarbligini ko'rsatdi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PQ-5847-son Qarori.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliev tahr. ostida. Tahrir hay‘ati: E. Begmatov va boshq. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: «Просвещение», 1995. – 336 с.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М., 1989.
5. Беспалько В.П., Татур Ю.Г. Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специалиста. – М., 1989.-144 б.
6. Киёмов А.Х. Бўлажак технологик таълим педагогларининг компетентлигини шакллантириш тизими . Тафаккур зиёси. 2021/12.№4. В. 17-21 Жиззах.
7. Киёмов А.Х. Бўлажак педагогларнинг технологик компетенлигини шакллантириш. Касб-хунар таълими. Илмий-услубий, амалий, маърифий журнал. Тошкент -2020. № 3.Б. 27-31.
8. Киёмов А.Х. Узлуксиз таълим тизимида бўлажак педагогларда технологик кўникмаларнинг шаклланиш жараёнларини моделлаштириш. Касб-хунар таълими. Илмий-услубий, амалий, маърифий журнал. Тошкент -2020. № 3.Б. 63-68.
9. Симоненко, В. Д. Технологическая культура и образование (культурно-технологическая концепция развития общества и образования) : учебник / В. Д. Симоненко.-Брянск : БГПУ, 2001. – 214 с. – ISBN 5-88543-053-5. – Текст : непосредственный.

